XALQ DEPUTATLARI VOBKENT TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 17-may VII-12-59-2-33-K/25 Vobkent tumani

Vobkent tumani mahalliy byudjetining 2024-yil yillik ijrosi hamda 2024-yil davomida kiritilgan oʻzgartirishlari toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 27-, 126- va 148-moddalariga asosan Vobkent tuman mahalliy byudjetining 2024-yil yillik daromadlari **102,3 mlrd**.soʻmni tashkil etdi, mahalliy byudjetdan **229,3 mlrd**.soʻm miqdorida xarajatlar amalga oshirildi, shundan **144,6 mlrd**.soʻmi yoki **63,1 foiz**i ijtimoiy xarajatlarga yoʻnaltirildi.

Bundan tashqari, respublika byudjetidan maqsadli tadbirlarga qoʻshimcha ajratilgan mablagʻlar, tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar hamda viloyat mahalliy byudjeti parametrlari doirasida kiritilgan oʻzgartirishlar hisobiga belgilangan tadbirlar oʻz vaqtida moliyalashtirilgan.

Shuningdek, 2024-yil davomida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi PQ-5-sonli hamda Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-fevraldagi 79-sonli qarorlari ijrosini taʼminlash maqsadida Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari qarorlariga asosan qishloq xoʻjaligi maqsadlarida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasining yillik prognozini 40 foizga oshirilganligi hamda Xalq deputatlari viloyat Kengashining qarorlari hamda viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining bildirishnomalari asosida mahalliy byudjetga tushumlardan kelib chiqib, soliq turlari boʻyicha reja koʻrsatkichlarga tegishli oʻzgartirishlar kiritilgan.

Oʻzbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 27-, 126- va148-moddalariga asosan tuman mahalliy byudjetining 2024-yil yillik ijrosi byudjet parametrlariga kiritilgan oʻzgartirishlar toʻgʻrisidagi hisobotini muhokama qilib, “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunining 6-va 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari Vobkent tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Vobkent tumani iqtisodiyot va moliya boʻlimi boshligʻi birinchi oʻrinbosari A.Barotovning tuman mahalliy byudjetining 2024-yil yillik byudjet ijrosi hamda byudjet parametrlariga kiritilgan oʻzgartirishlar toʻgʻrisidagi hisoboti maʼlumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

- Vobkent tumani mahalliy byudjetining 2024-yil daromadlari ijrosi boʻyicha asosiy koʻrsatkichlar 1-ilovaga;

- Vobkent tumani mahalliy byudjetining 2024-yil xarajatlari ijrosi boʻyicha asosiy koʻrsatkichlar 2-ilovaga;

- Vobkent tumani mahalliy byudjetining daromadlari rejasiga 2024-yil davomida oʻzgartirishlar miqdori 3-ilovaga;

- Vobkent tumanidagi byudjet tashkilotlarining birinchi darajali toʻlovlari hamda joriy xarajatlarini oʻz vaqtida amalga oshirish maqsadida tuman mahalliy byudjeti xarajatlar rejasiga 2024-yil davomida oʻzgartirishlar miqdori 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tumani hokimining birinchi oʻrinbosari — Iqtisodiyot va moliya boʻlimi boshligʻi M.Malikovga tumani iqtisodiyot va moliya boʻlimi boshligʻining birinchi oʻrinbosari A.Barotov bilan birgalikda:

Oʻzbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi talablari asosida tuman mahalliy byudjetining tasdiqlangan parametrlariga belgilangan tartibda tegishli oʻzgartirishlarni kiritish;

ajratilgan maqsadli mablagʻlarni oʻz vaqtida va samarali ishlatilishi yuzasidan moliyaviy hisobotlar asosida tizimli oʻrganish hamda oʻrganish natijalariga koʻra, ishlatilmagan va iqtisod qilingan mablagʻlarni tuman mahalliy byudjetiga qaytarish choralarini koʻrsin.

4. Tuman iqtisodiyot va moliya boʻlimi boshligʻining birinchi oʻrinbosari A.Barotov va tuman soliq inspeksiyasi boshligʻi A.Xolmurodovga:

tuman hokimligi bilan birgalikda daromadlar prognoz reja koʻrsatkichlarini soʻzsiz ijrosini taʼminlash choralarini koʻrish.

Bunda, prognoz rejani har bir soliq turi kesimida toʻliq bajarilishini taʼminlash;

byudjet daromadlari bazasini kengaytirish hamda mahalliy byudjetga qoʻshimcha soliq tushirish manbalarini aniqlash va mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish vazifasi yuklatilsin.

5. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan Xalq deputatlari Vobkent tumani Kengashining 2025-yil 11-fevraldagi “Vobkent tumani mahalliy byudjetining 2024-yil yillik ijrosi hamda 2024-yil davomida kiritilgan oʻzgartirishlari toʻgʻrisida”gi VII-7-21-2-33-K/25-sonli qarori oʻz kuchini yoʻqotgan deb hisoblansin.

6. Mazkur qarorning ijrosini taʼminlash tuman hokimining moliya-iqtisod va kambagʻallikni qisqartirish boʻyicha birinchi oʻrinbosari — tuman iqtisodiyot va moliya boʻlimi boshligʻi M.Malikovga, ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish boʻyicha doimiy komissiyasi (A.Qurbonov) zimmasiga yuklatilsin.

7. Mazkur qaror qabul qilingan kundan eʼtiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi

OSTONOV AKMAL ANVAROVICH

Xalq deputatlari Vobkent tumani
Kengashining
2025-yil 17-maydagi
VII-12-59-2-33-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Vobkent tumani mahalliy byudjetining 2024-yil daromadlari ijrosi boʻyicha asosiy KOʻRSATKICHLAR

mln.soʻmda

№	Daromadlar turlari nomi	Reja	Ijro	Farqi (+,-)	Ijrosi, foizda
1.	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	0,0	0,0	0,0	0
2.	Aylanmadan olinadigan soliq	10 746,0	9 917,0	-829,0	92,3%
3.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	21 915,5	23 443,9	1 528,4	107,0%
4.	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy belgilangan daromad solig'i	765,0	987,5	222,5	129,1%
5.	Oxirigi iste'molchiga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiyasi	17 461,0	19 280,9	1 819,9	110,4%
6.	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1 772,5	1 606,5	-166,0	90,6%
7.	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	7 755,0	8 074,1	319,1	104,1%
8.	Yuridik shaxslar yer solig'i	5 480,5	6 481,6	1 001,1	118,3%
9.	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	12 768,0	13 385,9	617,9	104,8%
10.	Noruda qurilish materiallari uchun yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	0,0	0,0	0,0	0
11.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq *	12 614,0	9 176,4	-3 437,6	72,7%
12.	Davlat boji	5 227,0	3 587,5	-1 639,5	68,6%
13.	Jarimalar	0,0	2 648,2	2 648,2	0
14.	Ijara to'lovlari	69,0	62,2	-6,8	90,2%
15.	Dividendlar	0,0	0,0	0,0	0
16.	Yig'imlar	0,0	2,3	2,3	0
17.	Boshqa tushumlar	0,0	3 659,1	3 659,1	0
x	**Daromadlar jami**	**96 573,5**	**102 313,1**	**5 739,6**	**105,9%**

*Izoh: * Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi PQ-5-sonli hamda Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-fevraldagi 79-sonli qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari qarorlariga asosan qishloq xoʻjaligi maqsadlarida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasining yillik prognozini 40 foizga oshirilganligi inobatga olingan.*

Shuningdek, Xalq deputatlari viloyat Kengashining qarorlari hamda viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining bildirishnomalari asosida mahalliy byudjetga tushumlardan kelib chiqib, soliq turlari boʻyicha reja koʻrsatkichlarga tegishli oʻzgartirishlar kiritilgan.

Xalq deputatlari Vobkent tumani
Kengashining
2025-yil 17-maydagi
VII-12-59-2-33-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Vobkent tumani mahalliy byudjetining 2024-yil xarajatlari ijrosi boʻyicha asosiy KOʻRSATKICHLAR

mln.soʻmda

№	Hududiy byudjet mablagʻlarini taqsimlovchilari nomi	Reja	Ijro	Farqi (+,-)	Ijrosi foizda %
	Vobkent tumani boʻyicha jami	**226 711,0**	**229 347,7**	**2 636,7**	**101,2%**
1.	Maktabgacha va maktab taʼlim boʻlimi	46 891,2	46 888,7	-2,5	100,0%
2.	Tibbiyot birlashmasi	86 597,8	86 490,2	-107,6	99,9%
3.	Madaniyat boʻlimi	2 358,1	2 356,8	-1,300	99,9%
4.	Cport boʻlimi	9 087,7	9 085,7	-2,0	100,0%
5.	Qishloq xoʻjaligi boʻlimi	3 705,8	3 705,4	-0,4	100,0%
6.	Suv xoʻjaligi tashkilotlari	5 257,3	5 213,4	-43,9	99,2%
7.	Bandlik boʻlimi	2 397,6	2 397,6	0,0	100,0%
8.	Iqtisodiyot va moliya boʻlimi	2 378,8	2 378,7	-0,1	100,0%
9.	Soliq boʻlimi	4 686,4	4 685,0	-1,4	100,0%
10.	Tuman hokimligi	54 584,3470	57 383,9770	2 799,6	105,1%
-	*shundan, "Fuqarolar tashabbusi" jamgʻarmasiga oʻtkazilgan mablagʻlar*	19 389,9	19 389,9	0,0	100,0%
11.	Prezident Admistratsiyasiga qarashli tashkilotlar	1 226,2	1 224,8	-1,4	99,9%
12.	Kengash kotibiyati	395,6	394,0	-1,5	99,6%
13.	Yoshlar ishlari agentligi boʻlimi	4 923,8	4 923,8	-0,0	100,0%
14.	Mahalla byudjeti	2 220,4	2 219,6	-0,8	100,0%

*Izoh: * Xalq deputatlari tuman Kengashi qarorlari, tuman hokimining tegishli farmoyishlari hamda viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining bildirishnomalariga asosan kiritilgan oʻzgartirishlar.*

Xalq deputatlari Vobkent tumani
Kengashining
2025-yil 17-maydagi
VII-12-59-2-33-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Vobkent tumani mahalliy byudjetining 2024-yil daromadlari ijrosi boʻyicha asosiy KOʻRSATKICHLAR

mln.soʻmda

№	Daromadlar turlari nomi	Tasdiqlangan reja	Oʻzgartirishlar*	Aniqlangan reja
1.	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda soligʻi	0,0	0,0	0,0
2.	Aylanmadan olinadigan soliq	12 008,0	-1 262,0	10 746,0
3.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻi	23 023,0	-1 107,5	21 915,5
4.	Tadbirkorlik faoliyati bilan shugʻullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qatʼiy belgilangan daromad soligʻi	1 006,0	-241,0	765,0
5.	Oxirigi isteʼmolchiga benzin, dizel yoqilgʻisi va gaz realizatsiyasi	15 711,0	1 750,0	17 461,0
6.	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2 093,5	-321,0	1 772,5
7.	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	8 660,0	-905,0	7 755,0
8.	Yuridik shaxslar yer soligʻi	2 436,5	3 044,0	5 480,5
9.	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer soligʻi	13 937,0	-1 169,0	12 768,0
10.	Noruda qurilish materiallari uchun yer qaʼridan foydalanganlik uchun soliq	0,0	0,0	0,0
11.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq *	5 371,0	7 243,0	12 614,0
12.	Davlat boji	4 837,0	390,0	5 227,0
13.	Jarimalar	0,0	0,0	0,0
14.	Ijara toʻlovlari	67,0	2,0	69,0
15.	Dividendlar	0,0	0,0	0,0
16.	Yigʻimlar	0,0	0,0	0,0
17.	Boshqa tushumlar	0,0	0,0	0,0
X	**Daromadlar jami**	**89 150,0**	**7 423,5**	**96 573,5**

*Izoh: * Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi PQ-5-sonli hamda Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-fevraldagi 79-sonli qarorlari ijrosini taʼminlash maqsadida Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari qarorlariga asosan qishloq xoʻjaligi maqsadlarida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasining yillik prognozini 40 foizga oshirilganligi inobatga olingan.*

Shuningdek, Xalq deputatlari viloyat Kengashining qarorlari hamda viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining bildirishnomalari asosida mahalliy byudjetga tushumlardan kelib chiqib, soliq turlari boʻyicha reja koʻrsatkichlarga tegishli oʻzgartirishlar kiritilgan.

Xalq deputatlari Vobkent tumani
Kengashining
2025-yil 17-maydagi
VII-12-59-2-33-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Vobkent tumani mahalliy byudjetining 2024-yil xarajatlari ijrosi boʻyicha asosiy KOʻRSATKICHLAR

mln.soʻmda

№	Hududiy byudjet mablagʻlarini taqsimlovchilari nomi	Tasdiqlangan reja	Oʻzgartirishlar*	Aniqlangan reja
	Vobkent tumani boʻyicha jami	**199 652,0**	**27 059,0**	**226 711,0**
1.	Maktabgacha va maktab taʼlim boʻlimi	34 605,0	12 286,2	46 891,2
2.	Tibbiyot birlashmasi	84 216,6	2 381,2	86 597,8
3.	Madaniyat boʻlimi	2 341,6	16,5	2 358,1
4.	Cport boʻlimi	7 366,2	1 721,5	9 087,7
5.	Qishloq xoʻjaligi boʻlimi	3 144,9	560,9	3 705,8
6.	Suv xoʻjaligi tashkilotlari	1 866,3	3 391,0	5 257,3
7.	Bandlik boʻlimi	1 826,0	571,6	2 397,6
8.	Iqtisodiyot va moliya boʻlimi	2 114,0	264,8	2 378,8
9.	Soliq boʻlimi	4 249,0	437,4	4 686,4
10.	Tuman hokimligi	50 629,8	3 954,5	54 584,3470
-	*shundan, "Fuqarolar tashabbusi" jamgʻarmasiga oʻtkazilgan mablagʻlar*	18 874,9	515,0	19 389,9
11.	Prezident Admistratsiyasiga qarashli tashkilotlar	966,9	259,3	1 226,2
12.	Kengash kotibiyati	269,0	126,6	395,6
13.	Yoshlar ishlari agentligi boʻlimi	4 289,0	634,8	4 923,8
14.	Mahalla byudjeti	1 767,7	452,7	2 220,4

*Izoh: * Xalq deputatlari tuman Kengashi qarorlari, tuman hokimining tegishli farmoyishlari hamda viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining bildirishnomalariga asosan kiritilgan oʻzgartirishlar.*